


**O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va tizim tashkilotlarda
korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya
va lavozimlar ro'yxati**

2025-yil 1-oktyabr holatiga

T/r	Funktsiya nomi	Tashkilot tuzilmasi nomi	Lavozim
1.	Mahsulotlar va xizmatlarning texnik reglamantlarda belgilangan talablarga muvofiqlikni baholash uchun zarur bo'lgan mahsulot namunalarini olish jarayonida bevosita jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoni mavjud.	"O'zTest" DM	Muvofiqlikni baholash bo'yicha texnik siyosatni amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i
2.	Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ xujjatlar talablariga rioya etilishini, o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishi va to'g'riligi, mavjud sertifikatlashtirish qoidalarini ta'minlanishini tashkil etishda jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan bevosita aloqa, shuningdek o'tkazilgan davlat nazorati bayonnomalariga o'zgartirishlar kiritish xavfi mavjud.	Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi	Davlat nazorati bo'limi
3.	Davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish yuzasidan joyiga chiqqan xodimlarning metrologik xizmat ko'rsatishida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan bevosita aloqa mavjud.	"O'zMMI" DM	Metrologiyani rivojlantirish va o'lchash birliklarini yagonaligini ta'minlash bo'limi
4.	Akkreditatsiya uchun buyurtmani qabul qilishda yuridik shaxslar bilan bevosita aloqa mavjudligi, (o'zaro til biriktirish ijro muddati yoki baholovchilarga pora berishda vositachilik qilish)	"O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM	Murojaatlar bilan ishlash bo'limi
5.	Akkreditatsiya ob'ektlarini baholash natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda manfaatlar to'qnashuvi va MBolar o'rtasidagi raqobatni cheklash.	"O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM	Komissiya a'zolari
6.	Laboratoriyalarni ma'qullashdan o'tish uchun ariza va hujjatlarni ko'rib chiqishda, buyurtmani qabul qilishda yuridik shaxslar bilan bevosita aloqa mavjud.	"O'zMMI" DM, "O'zTest" DM	Metrologiyani rivojlantirish va o'lchash birliklarini yagonaligini ta'minlash bo'limi boshlig'i,

			Muvofiqlikni baholash bo'yicha texnik siyosatni amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i
7.	Davlat xaridlari jarayonida, tovarlar yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomalar tuzish, ularning bajarilishini nazorat qilishda o'tkazishda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, vakolatini suiste'mol qilish, mansab vakolati doirasidan chetga chiqish hamda mansabga sovuqqonlik bilan qarash.	"O'zMMI" DM, "O'zTest" DM, "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM va "O'zbekiston standartlar instituti" DM.	Rahbarlar
8.	Muvofiqlikni baholash organlari shakllantirish jarayonida manfaatlar to'qnashuvini to'liq bartaraf yetish.	"O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM	Maxsus bo'linmalar
9.	Nomzodlarni ishga qabul qilish va nomzodlarni shahodatlash jarayonida mansab vakolatini suiste'mol qilish, mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, mansabga sovuqqonlik bilan qarash va h.k.	O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, "O'zMMI" DM, "O'zTest" DM, "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM va Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi, xodimlar bilan ishlar bo'limlari

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
va komplaens nazorati bo'lim
boshlig'i**



Q.Raximov